

**Abu Ali ibn Sinoning odam anatomiyasiga qo'shgan hissasi**

Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti 2-son davolash

fakulteti 1-kurs talabasi **Odilova Nozanin**

Annotatsiya: Bu maqolada Ibn Sinoning odam anatomiyasiga oid qilgan ilmiy ishlari bayon etilgan. Ibn Sino bu ishlari bilan butun dunyoga tanilgan. Uning bu darajaga yetkazishda, ayniqsa, “Tib qonunlari” asari muhim o‘rin tutadi. Hatto, bu kitobdan hamma mamlakatlar foydalanib o‘z tibbiyotlarini rivojlantirgan va haligacha foydalanishadi.

Kalit so‘zlar: inson , tibbiyot , kasallik , yurak , qon tomir , ko‘z , quloq , teri , markaziy , periferik , nerv yo‘li , asab kasalliklari , bosh miya , orqa miya , miya qorinchalari , klinik anatomiya.

Abu Ali ibn Sino ilm - fan taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shgan siymolardan bo‘lib , uning to‘liq ismi Abu Ali al-Husayn ibn Abdulloh al-Hasan. Ibn Sinoni Yevropada Avitsenna, Sharqda esa Shayx ur-ra'is nomi bilan atashadi. U yoshligidan tabobat ilmiga qiziqib Gippokrat va Galen hamda o‘rta asr Sharqining buyuk hakimi va mutafakkiri Abu Bakr ar-Roziyning asarlarini puxta o‘rgandi. Ibn Sino turli xalq olimlari tomonidan asrlar davomida tib ilmi sohasida to‘plangan ma’lumotlarning muhimlarini ikkinchi darajalilardan ajratib, muayyan bir tartibga solgan va kamchiliklarini to‘ldirgan holda qonun - qoida asosida umumlashtirgan. U tibbiyotga oid 40 dan ziyod asar yozgan. Bularning ichida eng mashhuri “Tib qonunlari” dir. “Tib qonunlari” asari 5 jildli bo‘lib , a‘zolar , ularning qismlari anatomiyasi, fiziologiyasi , tabobatda qo‘llaniladigan dori - darmonlar va ularning tayyorlanish usullari to‘liq bayon qilingan.



Inson tanasi qismlarini tizimli o'rganish :

Ibn Sino anatomiya faniga birinchi bo'lib tizimli yondashuv kiritgan. U odam tanasidagi organlarni sodda (masalan , suyak , pay , mushak , tomir , nerv) va murakkab (masalan , yurak , o'pka , jigar , buyrak , miya) organlarga ajratgan. Bu yondashuv o'sha davr uchun ilmiy yangilik edi. Abu Ali ibn Sino tibbiyotni 3ta tizimga bo'lib o'rgangan. Bular nazariy tibbiyot, amaliy tibbiyot va umumiy tamoyillar. Nazariy tibbiyotda a'zolar , moddalar almashinuvi , insonning tabiati o'rganiladi. Amaliy tibbiyotda esa kasalliklarni aniqlash va davolash usullari bayon etilgan. Umumiy tamoyilda tibbiy qonuniyatlar , ya'ni sog'liqni saqlash (gigiyena , to'g'ri ovqatlanish , dam olish , muhit) haqida yozilgan.

Yurak , qon tomirlar haqida

Ibn Sino yurakni inson hayotining markazi deb bilgan. U yurakning tuzilishini , ikki qorinchasi borligini , qonning yurakdan tomirlar orqali butun tanaga tarqalishini o'rgangan. Yurakni o'rab turuvchi seroz parda va yurak avtomatizmi haqida o'z asarida to'liq ma'lumot bergan. Ichida qoni yo'q tomirlar borligini “ Avesto ” dan o'qib , bu tomirlar nerv tomirlari ekanligini aniqlagan.

Miya va nerv tizimi haqida

Ibn Sino miya faoliyati , nervlar , sezgi va harakat markazlari haqida chuqur mulohazalar bildirgan. U insonning ruhiy holati va fiziologik jarayonlari o'rtasidagi bog'liqlikka e'tibor qaratib , psixofiziologiya yo'nalishiga asos solgan. Asab kasalliklarini (falaj , talvasa , bosh og'rig'i , hushdan ketish) alohida o'rganib chiqqan. Nerv tizimining markaziy va periferik qismlardan iboratligini bundan ming yil oldin aniqlagan , bosh miya nervlari , bosh va orqa miya pardalari , bosh miya qorinchalari , miya tomirlarining tuzilishini keng yoritib bergan.

Sezgi a'zolari anatomiyasi

Ibn Sino ko'z , ko'zning yordamchi apparati : ko'z mushaklari , qovoqlar , kipriklar , ko'z yoshi bezi va uning kanali , ko'zning qon tomirlari va nervlari haqida “ Tib



qonunlari ” asarida batafsil ta’riflagan. Nurlar tasviri ko’zning to’r pardasiga tushib , bosh miyada sodir bo’lishini aniqlagan. Abu Ali ibn Sino quloqdagi 4ta qismni farqlaydi. Bular : quloq suprasi , tashqi eshituv yo’li va uning nog’ora parda bilan yopiq qismi , nog’ora bo’shlig’i , ichki eshituv yo’li yoki “ nerv yo’li ”. “ Tib qonunlari ” asarida yana teri retseptorlari orqali og’riq , harorat va bosim sezgilari to’liq yoritilgan.

Klinik anatomiya asoslari

Abu Ali ibn Sino odam anatomiyasidagi nazariy ma’lumotlarni amaliy tibbiyot bilan bog’lagan. U kasallik sababi va natijasi o’rtasidagi bog’liqlikni tahlil qilgan. Ibn Sino : ” Tibbiyot shunday bir ilmki , u bilan inson gavdasining ahvoli sog’lik va kasallik jihatidan o’rganilib , uning mavjud sog’lig’i saqlanadi va yo’qotilgani tiklanadi ” - degan. U salomatlikni saqlash masalasini birinchi o’ringa qo’ygan. Demak Ibn Sinoning tushunishicha , tibbiyotning asosiy vazifasi kishilar sog’lig’ini saqlashdan iborat. Olim kasallikning davolash usullarini emas , balki , uni oldini olish usullarini oldingi o’ringa qo’ygan.

Abu Ali ibn Sino odam anatomiyasiga beqiyos hissa qo’shgan. U : ” Har bir a’zoning tuzilishi vazifasiga mos bo’lishi kerak , shuning uchun shifokor organizm tuzilishini mukammal bilmasdan turib , bemorni davolay olmaydi ” , -deb aytgan. Uning “ Tib qonunlari ” asari keyingi asrlarda Yevropa tibbiyotining rivojlanishiga kuchli ta’sir ko’rsatgan. Ibn Sino yozib qoldirgan nazariy qismlardan amaliyotda foydalanilgan. Deyarli hamma mamlakatlardagi bilim yurtlarida “ Tib qonunlari ” asari asosiy qo’llanma bo’lib kelgan va hamon foydalanishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

Ibn Sino , ” Al - Qonun fit – tib ” (“ Tib qonunlari ”)

F. Bahodirov , ” Odam anatomiyasi ”

A. A. Qodirov , ” Tibbiyot tarixi ”